

ZAMONAVIY PEDAGOGIKA VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI

Eshqulova Surayyo

O'zbekiston Davlat Jahon tillari unversiteti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika fani haqida, bu fanning xususiyatlari, imkoniyatlari haqida fikrlar keltiriladi. Zamon talablariga mos keladigan kompyuter lingvistikasi, kompyuterlashgan jamiyat haqida izohlar aytiladi.*

Kalit soʻzlar: *pedagogika, taʼlim, global taraqqiyot, kompyuter, avtomatik tahrir, tarbiya, integratsiya.*

Kirish: Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-maʼnaviy hayot darajasining yuksalishi taʼlim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti, erishilgan natijalar bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda taʼlim-tarbiya tizimini yangi bosqichga koʻtarish va isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilgoʻr xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik taʼlim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil va keng koʻlamda ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda avvalo, zamonaviy pedagoglar va zamonaviy pedagogikaning ahamiyati muhim. **Pedagogika** (yun. paidagogike) — tarbiya, taʼlim hamda maʼlumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa oʻquv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida oʻrganiladigan oʻquv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shugʻullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham oʻquv-tarbiyaviy, madaniy hamda maʼnaviy-maʼrifiy tarbiyasi bilan shugʻullanishni koʻzda tutadi. Oʻzbekiston Respublikasida pedagogikaga barkamol va yetuk shaxs maʼnaviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va oʻquv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yoʻsinlarini belgilab beradi

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topish, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatarini safarbar etamiz”,- deydi Yurtboshimiz SH.Mirziyoyev .



20 asr o`rtalarida insoniyat tarixida tubdan burilish hosil qilgan globallashuv jarayoni boshlandi. Tez sur`atlar bilan uyg`unlashayotgan milliy ong ,milliy tafakkur ,milliy madaniyat bugun zamonaviy tus oldi. Pedagogika ham zamon talablariga mos keladigan ,global taraqqiyotning muhim xususiyatlari sohalarga texnikaning kirib kelishi, kompyuter dasturlarining shakllanishi ,integratsiya jarayoni bilan belgilanadi. Zamonaviy pedagogika ham ana shunday talablarga mos rivojlanmoqda. Kompyuterlashgan jamiyat bugun jamiyatning har bo`g`iniga kirib ulgurdi..

Avvalo, shaxsni tarbiyalash, o`qitish va shakllantirish zamonaviy pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy atama hisoblanib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo`naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Insonlar orasida yasash va faoliyat ko`rsatish uchun muhim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar yig`indisini o`zlashtirishga qaratilgan faoliyat o`qitish tushunchasini ifoda etadi. O`qitish natijasida shaxs kerakli bilimlar bilan ta`minlanib, kelajakda turli darajadagi maxsus ma`lumotni olish imkoniga ega bo`ladi. Tarbiyalash va o`qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 6 iyundagi "Oliy ta`lim muassasalarida ta`lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida" PQ-1313-sonli qaroridan ko`zlangan eng asosiy maqsad ham, yurtimizning intellektual resurslarini yanada boyitishdan iboratdir. Ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish yo`lida olimlar-u amaliyotchilar, professor o`qituvchilar yangi o`quv reja hamda dasturlar, qo`llanmalar, metodik materiallar ustida faol ishlar olib bormoqdalar. Bugungi kunda yangi o`quv tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Yangidan yangi davlat va nodavlat ta`lim muassasalari, gimnaziya, isxtisoslashtirilgan maktablar, bog`chalar, kollej, lisey, oliy o`quv yurtlari va boshqa bir qator o`qitish muassasalari tashkil etilib, ular turlicha yo`nalishlar bo`yicha ish olib bormoqdalar.

Ko`p yillar davomida pedagogikada kuzatish metodlari yagona metod hisoblanib kelindi. Ammo bugun kompyuter lingvistikasida o`ziga xos yangi va zamonaviy modellar yaratilib ,modellashtirish, formallashtirish, raqamlashtirish imkoniyati yuzaga keldi. Kompyuter lingvistikasining asosiy yo`nalishlari sifatida :

1. Amaliy yo`nalishlar;
2. Mashina tarjimasi;
3. Avtomatik tahrir;
4. Avtomatik tarzda tilga o`rgatish;
5. Statistik tadqiqotlar.



Bu yo`nalishlar tilshunoslik va kompyuter yaqinligini ,bu esa pedagoglar uchun zamon talablariga mos dars o`tishlarini talab qiladi.


Axborot texnologiyalarini ta`lim jarayoniga joriy etish bo`yicha jamiyatimizning tez sur`atlar bilan o`sib boruvchi ehtiyojlari oliy ta`lim muassasalarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg`ulotlarda elektron qo`llanmalar, virtual stendlar, Internet tarmog`i imkoniyatlaridan foydalangan holda masofaviy o`qitish, shuningdek, masofaviy ta`limni joriy etish bilan bog`liq izchil nazariy hamda amaliy tadbirlar bajarilishini taqozo etadi. O`zbekistonda masofaviy ta`lim tizimining rivojlanishi, xalqimizga faqat sifatli ta`lim berishnigina ta`minlab qolmasdan, u yana mamlakatimizning ta`lim xizmatlari xalqaro bozorida o`z o`rnini egallashiga ham imkon yaratadi. Kompyuterli o`qitishni tashkil etish va rivojlantirish bo`yicha bir qator yo`nalishda ishlar amalga oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilingan—Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarorda kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish, mamlakatimiz salohiyatini oshirishning demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biri sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytganda,Hozirgi kunda kompyuter vositalarning texnik va dasturiy ta`minoti darajasi ancha yuqori bo`lib, bu barcha sohada olib borilayotgan ishlarni qanoatlantirmoqda. O`qitishning kompyuterli tizimlarida ham bilimlar bazasini shakllantirish avtomatlashtirilgan o`qitish tizimlari tamoyillari bilan ishlovchi tizimlarni yanada yuqori bosqichga, ya`ni intellektual o`qitish tizimlari bosqichiga ko`tarishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikada kompyuterlashgan jamiyat o`z mustahkam o`rnini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Po'latov, S. Muxametlova "Kompyuter tilshunosligi". - Toshkent, 2007. - 56-bet.
2. Nurmonov "Strukturaviy tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari". - Toshkent,2008. - 145-bet.
3. A.V. Gladkiy, I.A. Melchuk "Matematik tilshunoslikning elementlari". - M .: Fan, 1969. b- 7.
4. «Axborotni olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida» gi O'zbekistonRespublikasining qonuni 24.04.1997 y. 400-sonli Qonun.





5. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlaritog'risida" gi 439-moddasi.

6. Internet saytlari.

